



Tadqiqot.uz

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK  
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA  
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR  
2021**

**BUXORO, UZBEKISTAN**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SOHA LINGVISTIKASI:**  
**TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT**  
**INTEGRATSIYASINING**  
**MUAMMOLARI, YECHIMLARI**  
**HAMDA ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**materiallari**

*Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil*

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**LINGUISTICS OF DIFFERENT  
FIELDS:  
PROBLEMS, SOLUTIONS AND  
PROSPECTS OF LINGUISTICS  
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**Bukhara, November 10, 2021**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО  
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:  
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ  
ЛИНГВИСТИКИ И  
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**Бухара, 10 ноября 2021 г.**

**© Tadqiqot.uz**

***“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.***

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

**Mas`ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori,  
professor Abuzalova M.Q.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),  
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga  
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva D.N.**

*Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.*

**© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021**

they will develop much more quickly into reflective practitioners rather than simply competent teachers. You can encourage this questioning:

- through general discussion of student teachers' ideas about teaching and learning

- through observation and debriefing of specific lessons

To do it well you need to:

- make time to explore the student teachers' preconceptions. Avoid the pressure to confine discussion simply to the next lesson to be taught

- strike a balance – encourage the student teachers to air their ideas without letting them think that they already have all the answers; question the student teachers' ideas without crushing their confidence

- provide the student teachers with data collected from observation of their lessons to allow them to assess the practical implication of their ideas.

#### References:

1. Tanner R. & Green C. Tasks for Teacher Education. Longman Press. 2008  
International Journal of Humanities, Arts, Medicine and Sciences (BEST: IJHAMS), 2014
2. Nishonaliyev U. Instrumentarniy obucheniya, vospitaniye I razvitiye // Uchitel Uzbekistana, 7. 10. 1998, N 38 (14613).
3. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>

#### Harakat tarzi shakllari va nutq

Ortiqova Gulchehra Hamzayevna \*

10.5281/zenodo.5685099

**Annotatsiya.** O'zbek tilshunosligida fe'llarning harakat tarzi shakllari orqali ish-harakat va holatning bajarilish davri (boshlanishi, vaqti-vaqti bilan yoki muntazam davomiyligi, to'la yoki to'kis tugallanganligi), tarzi (tezligi, imkoniyati) yoki bajaruvchining ish-harakat va holatga turlicha munosabati (xayrixohligi, manfaati) kabi qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi. Nutqning barcha uslublarida foydalanish mumkin bo'lgan ushbu til hodisasi muayyan ifodaning o'ziga xos ma'no qirralarini ochib berish uchun xizmat qila oladi.

Maqolada bir necha harakat tarzi shakllarining turli ma'no tovlanishlari badiiy asar qahramonlari nutqi misolida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *ko'makchi fe'l, o'z ma'no, qo'shimcha ma'no*

Har bir millatning yashash tarzi, milliy urf-odat, qadriyatlari, insonlarining o'zaro hamda turli voqea-hodisalarga munosabati, ruhiyati, xatti-harakatlari tarzi, umuman, xalqning bor bo'y-basti, avvalo, uning ona tilida aks etadi. Bunday o'ziga xoslik har bir tilda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Kishilik jamiyatida insonlar tildan, asosan, kommunikativ birlik sifatida foydalanadilar. Zero, til nutqiy muloqot (diskurs) deb ataladigan, mohiyatan kishilarning o'zaro fikr almashinish jarayoni bo'lgan yaxlitlik uchun asosiy vositadir [6].

---

\* Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi magistranti

Tilda shunday ifoda xosliklar bo'ladiki, ular faqat shu til nutqidagina o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etadi. Masalan, ingliz tilida *iboraviy fe'llar*, rus tilida *urg'uning so'z yasash xususiyatlari*, *rod va vid kategoriyalarini* shu tillarning oziga xos nutq imkoniyatlari sifatida baholash mumkin. Negaki, ushbu til hodisalari orqali ifodalanuvchi nutq imkoniyatlarini boshqa tillarda to'laligicha aks ettirishning imkoni yo'q.

O'zbek tili ham o'zining so'zga boyligi, so'zda ma'no qirralarining betakrorligi, o'zining takrorlanmas ibora, maqol, hikmatli so'zlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Tilimizda xalqimizga xos his-tuyg'ular, tushuncha va tasavvurlar, urf-odat hamda an'analar chuqur aks etgan. Tilimizdagi hayo, ibo, andisha, oriyat, nomus, mehr-oqibat degan so'zlarni boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydi. Ularni faqat o'zbek tili orqali ifoda etish mumkin.

Shuningdek, nutqimizda faol qo'llanuvchi harakat tarzi shakllari flektiv tillarda mavjud bo'lmagan o'ziga xos nutq ifodasi hisoblanadi. To'g'ri, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima ishlarida rus tiliga xos bo'lgan vid kategoriyasi o'zbek tilida harakat tarzi shakllari orqali ifodalanadi. Ammo shuni e'tirof etish kerakki, vid kategoriyasi orqali ifodalanuvchi ma'nolarini o'zbek tilida to'la ifodalay olinmagani kabi harakat tarzi shakllarini ham vid kategoriyasida aynan ifodalab bo'lmaydi. Harakat tarzi shakllari vid kategoriyasiga nisbatan semantik jihatdan boyroq hodisa. Chunki harakat tarzi shakllari vid kategoriyasidek nafaqat tugallanganlik yoki takroriylik, balki davomiylik, qodirlik, sinash, kutilmaganlik, boshlanish, bir marta bajarish kabi bir qator qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalay olish xususiyatiga ega. Buni o'zbek va rus tillarida birgina aytmoq fe'lini qiyoslash orqali isbotlash mumkin. Masalan: aytdi – сказал, aytib qo'ydi – сказал, ayta boshladi – начал говорить, ayta oldi – смог сказать, aytib berdi – рассказал, aytib soldi – сказал, aytib ko'rdi – сказал, aytib chiqdi – сказал, aytib o'tdi – упомянул, aytib turdi – пересказывал, aytib tashladi – сказал, aytib bo'ldi – рассказал.

Ko'rib turganimizdek, ruscha fe'llardagi sovershenniy, nesovershenniy vid shakllari orqali yuqoridagi ma'nolarning hammasini ham yuzaga chiqarib bo'lmaydi. To'g'ri, biror matn o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilinganda tarjimon ushbu ma'nolar ning barchasini imkon qadar ifodalashga harakat qiladi, ammo bunda vid kategoriyasining o'zi yetarli bo'lmaganligi uchun tilning boshqa turli vositalaridan foydalanadi. Masalan, *Akbar bugun barcha ko'rgan-bilganlarini aytib oldi - Акбар сумел рассказать все, что он видел, как только представился шанс.*

O'zbek tilida ravishdoshning -(i)b shaklidagi fe'l bilan birikib kelgan *olmoq* ko'makchi fe'li harakat-holatning tez va oson, to'la bajarilganlik ma'nosini ifodalaydi. Gap mazmunidan esa harakat-holatning nutq vaziyatidan foydalangan holda bajaruvchi manfaati tomon yo'nalish (o'zi uchun, o'z foydasiga) ma'nosini ham anglash mumkin. Ushbu qo'shimcha ma'nolarni nutqda birgina *oldi* ko'makchi fe'li orqali ifodalash ushbu mazmundagi gapning rus tilida berilishi bilan qiyoslaganda shu tilning ifoda ko'rki hisoblanadi, albatta.

Quyida o'zbek tilida ayrim ko'makchi fe'llarning turli qo'shimcha ma'nolari hamda ularning izohiga misollar yordamida to'xtalamiz.



Masalan, *Kimsan akam bobom bilan xayrlashayotganida ham ikki ko'zini mendan uzradi, shu topda Oqsoqolniam yomon ko'rib ketdim. Kimsan akamni quchoqlab oldi. Ha deganda bo'shata qolmaydi* [5].

Matnda qo'llangan harakat tarzi shakllari haqida so'z yuritishdan oldin, keling, ushbu matnni ko'makchi fe'llarsiz, ya'ni faqatgina yetakchi fe'llarni keltirish bilan takrorlaymiz: *Kimsan akam bobom bilan xayrlashayotganida ham ikki ko'zini mendan uzradi, shu topda Oqsoqolniam yomon ko'rdim. Kimsan akamni quchoqladi. Ha deganda bo'shatmaydi.* Guvohi bo'lganimizdek matndan ko'makchi fe'llarni bemalol tushirib qoldirish mumkin. Biroq bunday holatda harakat-holat va harakat bajaruvchisi haqidagi turli belgi-xususiyatlar to'la anglashilmay qolinadi.

*Yomon ko'rib ketdim* harakat tarzi shaklida **ketdim** ko'makchi fe'li nafaqat harakat- holatning to'la bajarilganlik, balki me'yordan ortiq darajada ekanligini ifodalaydi. Ya'ni asar qahramoni Robiya o'zining ko'ngil qo'ygan insonining jangga ketishi oldidan u bilan bir lahza bo'lsa-da yuzma yuz turishi, biron og'iz so'z bilan suhbatlashishi uchun yo'l bermayotgan oqsoqolni negadir juda yomon ko'rganini aytadi. Robiya oqsoqolni avvaldan yomon ko'rmagan, balki shu paytning o'zida, shu bilan birga, me'yordan ortiq darajada yomon ko'rgan. Hamda ushbu ma'nolarni ifodalashda o'z nutqida *ketdim* ko'makchi fe'lidan foydalangan. Keyingi gapda oqsoqol nega Robiyaga yomon ko'rinib qolgani izohlanadi. *Quchoqlab oldi* harakat tarzi shaklida **oldi** ko'makchi fe'li ish-harakatning to'la bajarilganlik ma'nosi bilan birga bajaruvchining kuchli istak-xohishi bilan me'yordan ortiq amalga oshirilganlik ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni oqsoqolning ham Kimsanni urushga ketish oldidan to'yib bag'riga bosish istagi bildirilgan. Keyingi o'rinda qo'llangan *bo'shata qolmaydi* harakat tarzi shaklida **qolmoq** ko'makchi fe'li orqali ish-harakat bajarilishida boshqa shaxsning xayrixohligi ma'nosi anglashiladi. Ya'ni Robiya nutqida keltirilayotgan ushbu ko'makchi fe'l orqali uning oqsoqol Kimsan akani tezroq bo'shatishini xohlashi anglashiladi. Ingliz yoki rus tillarida ushbu jumla mazmunini ifodalash uchun *I wish* yoki *Я бы хотел* birikmalarini keltirishga to'g'ri keladi. Biroq o'zbek tilida, qolaversa, qiz bola nutqida bu tarzda birliklarni keltirish milliy qadriyatlarimizga munosib kelmaydi. Fikrning aytilishi kerak bo'lgan, ammo ayrim istak-xohish, g'azab, narat, quvonch, o'kinch kabi hislarni ifodalash uchun so'z qo'llash joiz bo'lmagan mana shunday pallalarda nutqimizda ko'makchi fe'llar juda qo'l keladi. Bunday so'zlar nutqimizda shaklan sodda va ixchamlik, mazmunan rang-baranglikni ta'minlaydi.

Masalan, *Odamzodning qonida g'alati adolatsizliklar bo'ladi. Begonalardagi o'zgarishni darrov sezasiz-u, yaqin odamingizga e'tibor bermaysiz. Xuddi ota-onangizni birov sizga bog'lab berib qo'ygandek. Go'yo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek. Oyim keksayib qolganini, sochlari oqarib ketganini, qovoqlari salqib, yuzi yillab to'shakka yopishib yotgan odamdek sarg'imtil zahil tusga kirganini endi payqadim* [5].

Nutqimizda ba'zan bir vaqtning o'zida bir emas ikki ko'makchi fe'lning o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, biri ikkinchisini inkor etmagan holda o'zidan oldin qo'llanuvchi yetakchi fe'lning turli xil qo'shimcha ma'nolarini anglatishi hodisasi ham mavjud. Keltirilgan parcha matnida *bog'lab berib qo'ymoq* harakat tarzi



shaklida ushbu hodisa kuzatiladi. **Berib** ko‘makchi fe‘li harakat-holatning to‘la bajarilishi ma‘nosi bilan birga o‘zga uchun bajarilishi (o‘zga manfaatga yo‘nalishi) ma‘nosini, **qo‘ymoq** ko‘makchi fe‘li esa harakatning to‘liq bajarilishi va buning natijasida holatning yuzaga kelishi ma‘nosini ifodalaydi. Ya‘ni *bog‘lab berib qo‘ymoq* harakat tarzi shakli orqali kimdir ota-onani doim farzandi bilan birga bo‘lishini ta‘minlashi hamda shu holatni bir umr saqlab qolishi ma‘nolari anglashiladi. Bu ma‘nolarga matn mazmunidan kelib chiqib bajaruvchining o‘z xatti-harakatidan norozilik, achchiqlanish ma‘nolarini ham anglash mumkin.

Birgina ko‘makchi fe‘l turli o‘rinlarda turli xil qo‘shimcha ma‘nolarni ifodalashi mumkin. Buni ko‘rib o‘tganimiz, *bo‘shata qolsaydi* hamda *keksayib qolmoq* harakat tarzi shakllari tarkibidagi **qolmoq** ko‘makchi fe‘li misolida kuzatishimiz mumkin. Birida ish-harakat bajarilishida boshqa shaxsning xayrixohligi ma‘nosi anglashilsa, ikkinchisida harakatning bajarilishi natijasida holatga o‘tishi, ya‘ni onaning keksalik holatiga tushishi ifodalanadi.

Birinchi va ikkinchi parcha matnlarida qo‘llangan *yomon ko‘rib ketdim* hamda *oqarib ketgan* harakat tarzi shakllari tarkibidagi **ketmoq** ko‘makchi fe‘lining ham ma‘no anglatishda sezilarli farqni kuzatish mumkin. Ya‘ni har ikki misolda ham ushbu ko‘makchi fe‘l harakat-holatning me‘yordan ortiq darajada ekanligini ifodalaydi, ammo *oqarib ketmoq* birikuvida mavjud bo‘lgan holatning saqlanib qolishi ma‘nosi *yomon ko‘rib ketdim* birikuvida mavjud emas. Ya‘ni Robiya oqsoqolni faqatgina bir muddat juda yomon ko‘rdi, xolos. Agar ushbu birikma *yomon ko‘rib qoldim* tarzida qo‘llanganda, ushbu mazmunni anglashimiz mumkin edi. Biroq asar qahramoni tilidan aynan *yomon ko‘rib ketdim* harakat tarzi shakli o‘rinli tanlab aytilgan, chunki ushbu vaziyatda oqsoqolning bunday xatti-harakati kishining yomon ko‘rib qolishi uchun sabab bo‘lolmas edi. 2-misolda esa asar qahramoni Muzaffarning anchadan buyon razm solmagan onasining sochlari oqarishi bir muddatli holat emas, balki bir umrli keksalik g‘am-tashvishlari belgisi edi.

Nutqimizda qo‘llanuvchi ko‘makchi fe‘llar bilan bog‘liq bunday ma‘no nozikliklari, odatda, shu til sohiblari, ya‘ni faqatgina tili o‘zbek tilida chiqqan insongina teran va tiniq holda tushunib, ulardan o‘rinli hamda maqsadli foydalana oladi. Buning uchun esa unga hech qanaqa til grammatikasini tushuntirishning hojati bo‘lmasligi kundek ravshan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Hojiyev A. O‘zbek tilida ko‘makchi fe‘llar. –T., Fan, 1966. [https:// ziyouz.com](https://ziyouz.com)
2. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.–Тошкент, 2007.–124 б.
3. Дилором Юлдашева. Нутқий мулоқотда сукутнинг ўрни. Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020). <http://interscience.uz/index.php/home>
4. Дилором Юлдашева (Dilorom YULDASHEVA). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>

5. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. –T., Sharq, 2012. – B.13-109. <https://ziyouz.com>
6. Юлдашева Д. Н. Сукут нутқий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo.,ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek tili <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

## Қазақ тіліндегі дыбыс сәйкестігі туралы

Садуақас Нұрбол Абдуллаұлы\*  
Ибрагимов Төлеген Асылбекұлы†  
10.5281/zenodo.5685111

**Аңдатпа.** Мақалада қазақ және башқұрт тілдеріндегі дыбыстар сәйкестігі, осы екі тілдің фонетикалық және лексикалық ерекшеліктері, сөздердің айтылымы туралы баяндалған.

**Тірек сөздері:** *қазақ, башқұрт, тіл, дыбыс, әліпби, фонетика, лексика*  
**The correspondence of sounds in the Kazakh language**

Адам баласының сөйлеу тілі өз даму жолында талай ғасырларды басынан өткеріп, оның өзіндік заңдылықтары да жүйелі түрде қалыптасып, бүгінгі ұлттық тілге айналды. Бірнеше тілдің ортақ белгілері, туыстық, құрылымдық жақындығымен қатар, олардың өзіндік айырмашылығы да тарихи жолда орнығып, өзіндік заңдылықтарға айналды. Тіл дыбыстары эволюциялық дамудың барысында бірнеше заңдылықтарды дүниеге әкелді. Солардың ішіндегі сөздік қорымыздың жүйесін құрайтын тілдік бірліктердің өн бойында табылып отыратын және тілдің тарихымен астасып жатқан заңдылықтардың бірі – дыбыс алмасулары. Түркі тілдерінің ішіндегі тілдердің өзара туысқандық жақтарын көрсетуде осы дыбыс сәйкестіктеріне назар аудару қажет. Мысалы, зерттеушілердің пікіріне қарағанда, М.Қашғаридың «Диуанында», басқа да көне түркі жазуында «дз», «дж» аффрикаты жиі кездеседі екен. Мұндағы «дз» аффрикаты башқұрт тілінде осы көне кезден сақталса, ал түрікпен тіліндегі «дз» аффрикаты оған көрші иран тілінің әсері болған, қазақ тіліндегі диалектілік «дж» осы «дз» аффрикатының бір түрі екен[1.72-73]. Ал түркі тілдеріндегі «р-з» сәйкесімі туралы жазылған еңбектер көп.

Синкретті түбірлердің «р-з» сәйкесімдеріне байланысты есім-етістік болып сөз табына ажырауы, жекелеген сөз табының пайда болуы, олардың ерекшелігі, осы дауыссыз дыбыстардың қайсысы алғашқы екендігі туралы әртүрлі айтылған пікірлер көп болған. «Р-з» дыбыс сәйкесімдеріне байланысты түркологиядағы мәселе жөнінде профессор Қ.Жұбанов та өз көзқарасын білдірген [2.387].

Мұның өзі Қ.Жұбановтың түркология саласында да жол көрсетіп, дыбыстардың сәйкесімдерінің ерекшеліктерін терең талдағанын көрсетеді.

\* Қазақстан Республикасы, Қ.Жұбанов атындағы Ақтөбе өңірлік университеті Қазақ филологиясы кафедрасы, филология ғылымдарының кандидаты, доцент. [sadu\\_ngd@mail.ru](mailto:sadu_ngd@mail.ru)

† Қазақ тілі мен әдебиеті мамандығы магистранты

## МУНДАРИЖА

<b>Rasmiy ochilish. Tabriklar</b>		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	<b>6</b>
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	<b>8</b>
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	<b>9</b>
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	<b>10</b>
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	<b>11</b>
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	<b>12</b>
<b>Yalpi majlis ma’ruzalari</b>		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	<b>15</b>
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>17</b>
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	<b>22</b>
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	<b>25</b>
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеҗбектериндеги сөзтапым негиздери (Q.Jўbanov сөзтапымындаг ‘ы лексикология мәселелери)</i>	<b>27</b>
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	<b>36</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O‘zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	<b>40</b>
<b>1-sho‘ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari</b>		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o‘zbek tillarida so‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	<b>42</b>
<i>Akhmedov A.R. Po‘latova S.M.</i>	<i>O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	<b>46</b>
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	<b>50</b>
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O‘zbek tili milliy korpusi uchun so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni teglash masalasig oid</i>	<b>55</b>
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	<b>61</b>
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	<b>65</b>
<i>Jo‘rayeva D.R. Qo‘shayeva N.E.</i>	<i>O‘quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	<b>68</b>
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	<b>71</b>
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg‘iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	<b>75</b>
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o‘rni</i>	<b>79</b>
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы танып білу(Аймақтық лексика негізінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	<b>84</b>
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	<b>88</b>

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	<b>93</b>
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	<b>97</b>
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma’naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	<b>102</b>
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	<b>104</b>
<i>To’yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o’quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	<b>111</b>
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	<b>116</b>
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	<b>121</b>
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	<b>125</b>
<b>2-sho’ba. O’zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida</b>		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So’z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	<b>131</b>
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	<b>136</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug’atlari xususida</i>	<b>139</b>
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	<b>141</b>
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	<b>146</b>
<i>To’rayeva Sh.</i>	<i>So’z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	<b>150</b>
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	<b>153</b>
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so’z birikmalarining tibbiyotda qo’llanilishi</i>	<b>157</b>
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	<b>161</b>
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	<b>164</b>
<i>Navro’zova M.G’.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	<b>172</b>
<b>3-sho’ba. Tibbiyot ta’limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi</b>		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	<b>174</b>
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	<b>179</b>
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	<b>182</b>
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	<b>185</b>
<i>G’aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	<b>190</b>
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	<b>195</b>
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	<b>200</b>
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O’zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo’llanilishi</i>	<b>204</b>
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	<b>207</b>
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	<b>211</b>
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag’ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	<b>214</b>
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	<b>218</b>

	<i>qo'llanilishi</i>	
<b>4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi</b>		
<b>Yusupova D.Y.</b>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	<b>222</b>
<b>Қалиев Е.М.</b>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	<b>228</b>
<b>Yuldasheva M.M.</b>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	<b>232</b>
<b>5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi</b>		
<b>Ashurbayeva R.Q.</b>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	<b>237</b>
<b>Istamova S. I.</b>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	<b>241</b>
<b>Qobilova A.B.</b>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	<b>245</b>
<b>Toshtemirova S.</b>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	<b>248</b>